

SOVET HOKIMIYATINING ISLOM DINI MUQADDAS
QADAMJOLARI VA MAROSIMLARIGA MUNOSABATI

Xakimjonova Nilufar
O'zMU tarix yo'nalishi magistri

Annotatsiya: Ushbu maqola sovet hokimiyatining O'zbekiston SSR hududida islom dini muqaddas qadamjolari va Ramazon va Qurbon hayitlariga nisbatan qo'yilgan cheklovlari va uning oddiy xalq hayotiga ta'siri haqida qisqacha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Diniy siyosat, marosimlar, diniy qadamjolar, soliq tizimi, masjidlar, dinga qarshi kurash.

Kirish

Qadim davrlardan beri xalq tomonidan avaylab saqlanib kelinayotgan diniy urf-odatlar marosimlarning ba'zilar Ramazon va Qurbon hayitlari, muqaddas joylarni ziyorat qilish, nikoh va nikoh to'yi, xatna to'yi, hayotdan ko'z yumganlarni xotirlash, janoza va shu kabilar aholi orasida keng tarqalgan diniy marosimlardir. Islomga xos marosimlar, urf-odatlar insonlarning hayotiga singib ketgan va xalqning turmush tarziga aylangandir. Ramazon va Qurbon hayitlari musulmonlarning an'anaviy keng nishonlanadigan diniy bayrami hisoblanadi.[1] Bu marosimlarda kishilar qarindosh-urug'laridan, keksalardan, kasallar holidan xabar olishgan, urushganlar yarashib, munosabatlarini tiklashgan. Bu shodiyona bayramlarni katta-yu kichik birdek sabrsizlik bilan kutgan. Bir necha asrlar mobaynida xalqimiz bu hayitlarni ishlamay, bayramona kiyinib, dam olib, o'yin-kulgu bilan o'tkazishgan.[2]

M.Usmonov muallifligida nashr etilgan "Islom aqidalari va marosimlari" kitobida Sovet ittifoqi davrida ushbu diniy marosimlarni o'tkazish man qilinganligi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Yana ushbu kitobda Hayit kunlari Sovet idoralari, korxonalar, xo'jaliklarda ish kuni bekor qilinmaganligi, dam olish, bayram qilishga Sovet hokimiyati ruxsat bermaganligi to'g'risida ham ma'lumotlar berilgan.[3]

Sovet ittifoqi davrida amalga oshirilgan ateistik targ'ibot tufayli O'zbekiston hududida diniy marosimlarning ahamiyatiga jiddiy zarar yetkazildi. Hattoki ba'zi holatlarda oddiy aholi diniy marosimlar kelib chiqishi haqidagi uydirma gaplarga ishonib, ko'plab tazyiqlardan o'zini chetga olish maqsadida diniy marosimlarni o'tkazmay qo'ydi. Qurbon hayitini insonlar uchun zararli deb uni ruhoniylar foydasi uchun xizmat qiladigan diniy bayram deb aholiga noto'g'ri ma'lumotlar berishdi. Qurbon hayiti marosimi uchun o'tkaziladigan tadbirlarga taqiqlar qo'yidilar. Islom dinining asosiy marosimi hisoblangan Qurbon hayitida aholining yiliga bir marta Alloh yo'lida qurbonlik qilib, ularni xalq orasidagi muhtoj insonlarga, qarindoshlarga tarqatishini ham qoraladilar. Buni biz ushbu ma'lumotlardan ham bilishimiz mumkin: "Surxondaryo oblastining Termiz rayonidagi Stalin nomli kolxozda 1957-yilda Qurbon hayiti munosabati bilan 600 bosh qo'y yo'q qilingan. Bunday marosimlar Kitob rayonida ham o'tkazilib kolxoz xo'jaligiga 12 ming so'm zarar bergan va yana boshqa kolxozlarda ham uchratish mumkin. Bunday holat takrorlanmasligi uchun diniy marosimlarni o'tkazilishiga qarshi tashviqotni kuchaytirishimiz kerak".[4]

1944-yilda Ittifoq diniy ishlar bo'yicha kengash ruxsat berib ochilgan masjidlarda hayit namozlari o'qildi. Buxoro viloyati diniy ishlar bo'yicha kengash vakilining 1944-yil 14-oktyabrda Respublika diniy ishlar bo'yicha kengash vakili I.Ibodovga yozgan ma'lumotida ko'rsatiladiki: "Ramazon hayiti bayrami vaqtida Buxoro shahridagi "Xo'ja Zayniddin" masjidida 4,8 ming so'm (bor yo'g'i 4786) yig'ildi. Ramazon hayiti kuni jami bo'lib butun viloyatlardan 15 ming so'm to'plandi".[5] Bu davrda faqatgina rasmiy faoliyat ko'rsatgan masjidlarda namoz o'qishga ruxsat berilgan, biroq boshqa masjidlarda namoz o'qish, Ramazon vaqtida taroveh namozini o'qish, xatmi-Qur'on o'qish taqiqlangan edi. Misol uchun, G'ijduvon shahridagi "Sari

Mozor” masjidida ro‘za paytida Xatmi-Qur’on o‘tkazilayotgan edi. Qur’on oqilishining beshinchi kuni G‘ijduvon rayoni ijroiya komiteti raisi dindorlarni masjiddan haydab yuborgan.[6]

Ramazon va Qurbon hayiti namozida qatnashuvchilarning sonini va yig‘iladigan daromadlarning kamayishiga asosiy sababi Sovet idoralarining islom dinini cheklash bo‘yicha amalga oshirilgan keskin siyosati bo‘ldi. Respublika viloyatlarining har birida 1-3 tadan masjidlar yopilgan edi. 1960-1962 yillarda Toshkent shahrida 2 ta, Toshkent viloyatida 3 ta, Andijon viloyatida 2 ta masjid yopilgan. Boshqa viloyatlarda ham shu kabi holatlar yuz bergan. [7] Respublikadagi bu vaziyat Hayit namozi o‘qiladigan masjidning kamayishi, Hayit namozi ishtirokchilari sonining ozayishiga sabab bo‘ldi. Hayit namozida qatnashganlarning sonining kamayishi va bunga qo‘shimcha tarzda namoz o‘qishga yig‘ilganlar orasidan yurib, xalta tutib pul yig‘ish o‘rniga masjidga muxrlangan quti o‘rnatilganligi Hayit namozida yig‘iladigan pulni kamayishiga olib keldi.

Xalqimiz qadim zamonlardan buyon ulug‘ ajdodlari xotirasiga ehtirom bajo keltirish maqsadida ularning qabrlarini ziyorat qilishga odatlangan. Buning ustiga, islom dunyosining boshqa o‘lkalari vakillari ham hamisha ko‘plab ulug‘ allomalar mangu orom topgan yurtimiz ziyoratiga oshiqishgan.[8] Avliyo keng ma’nodan kelajak voqealarni aytib beruvchi, karomat qiluvchi, odamlarning mushkulini oson qiluvchiga nisbatan ishlatiladi. Ana shunday insonlarning qabrlarini ziyorat qilinadi. Qur’oning oyat va suralaridan tilovat qilib, duo qilib o‘z dardiga shifo berishni so‘raydi. Ayrim avliyolarning qabrlarini ziyorat qilish kasallarning dardiga shifo beradi, tug‘mas ayollarga farzand ko‘rishga yordam beradi degan qarashlar bo‘lgan. Shuning uchun avliyolar mozorlarini, muqaddas joylarni ziyorat qilish uchun ko‘plab ziyoratchilar kelgan. Shu kabi joylar ziyorat qilinganda avliyolarning mozorlariga nazr-niyoz, xayr-sadaqa, qurbonlik qilish musulmonlarda odat bo‘lib qolgan.[9]

Avliyolar mozorlari diniy tashkilotlar uchun katta moddiy daromad manbai bo‘lgan. Shu sababli Respublika partiya va sovet organlari diniy arboblarni ilgari egalik qilgan avliyolar mozorlaridan mahrum qilish uchun turli harakatlarni amalga oshirgan. Musulmon diniy tashkilotlari esa mashhur muqaddas joylarni qonuniy yo‘l bilan o‘z ixtiyoriga olish uchun intilganlar.[10] Ayni shu maqsadlarni qisman aholiga yetkazishda sovet hokimiyatining daxriylik siyosati asosida faoliyat olib borgan ikki gazeta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Birinchisi Ateist gazetasi hisoblanib, 15 ming nusxada chiqarilgan va muharriri A.I.Shpitsberg, ikkinchisi esa Bezbojnik deb nomlanib muharriri E.Yaroslavskiy hisoblangan.[11] Bu ikki gazeta Ittifoqning har bir burchagigacha yetib borishi ta’minlangan. 1925-1928-yillarda cherkov va masjidlarini tugatish harakati kuchayib ketdi. Misol uchun birgina O‘zbekiston SSRning Xorazm viloyatida 1925-1928-yillar davomida 10 ga yaqin masjidlar yopib qo‘yiladi. O‘zbekiston SSRning Xorazm viloyatida 1925-1928-yillar davomida yopib qo‘yilgan masjidlariga: Kaptarxona, Nurillaboy, Shaxbozbobo, Mamat Maxram, Oq masjid, Masjidi Kalon, Saidboy kabi bir qator masjidlar turli sabablar bilan yopib qo‘yilgan.[12] 1928-yildagi Sovet hokimiyatining diniy muassasa va tashkilotlarga nisbatan siyosati nafaqat din vakillari va ruhoniylarni ba’lki butun jamiyat a’zolarini esankiratib qo‘ydi. Sovet davlatining ayni shu davrlardagi rahbari I.Stalin 1928-yil 3-martdagi nutqida “quloqlarga qarshi kurash, dinga qarshi hal qiluvchi kurash pallasi” ekanligini e’lon qilgandan so‘ng diniy muqaddas qadamjolar va dindorlarga qarshi ayovsiz kurash bosqichiga o‘tiladi. 1940-yilda O‘zbekiston SSR hududida diniy muassasalardan masjidlar soni 2965 tani, ulardan yashirin faoliyat yuritayotganlari esa 377 tani tashkil etgan.[13]

Xulosa sifatida, Sovet ittifoqi davrida Ramazon va Qurbon hayiti kunlari sovet tashkilotlarida ish kuni bekor qilinmagan, dam olish, bayram qilishga ruxsat berilmagan va bayramlarni nishonlashga qarshi kurashgan. O‘zbekiston diniy ishlar bo‘yicha kengash vakili deyarli har bir hayit arafasida diniy nazorat, viloyat kengash vakillari, sovet va partiya organlari, mafkuraviy tashkilotlar raxbarlari ishtirokida maxsus majlislar o‘tkazib turishgan. Norasmiy masjidlarda diniy nazorat ruxsat bermagan mullalarga hayit namozini tashkil etish man etilgan. Hayit namozlarida yosh bolalarning ishtirok etishi taqiqlangan. Tarovih namozi o‘qish, xatmi-Qur’on

o'tkazish ham cheklangan, ayrim rasmiy masjidlarga ruxsat berilgan. Bu siyosat esa mahalliy aholi qadimdan qadrlab kelgan diniy marosimlari zaiflashib, oddiy xalq hayotida o'chmas iz qoldirdi. Biroq shunday bo'lishiga qaramay muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish yashirin tarzda bo'lsada davom etgan. Umumiy olib qaralganda Sovet hokimiyatining O'zbekiston SSR da amalga oshirgan ateizmi targ'ib qilish borasida olib borilgan siyosati va musulmon ulamolarining qatag'on qilinishi natijasi juda ayanchli bo'ldi deb bemalol aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Чориев А. Зиё сари илк қадам //Фан ва турмуш. - Тошкент, 1986.
2. Жабборов И. Тафаккур чироги ва хурофот. – Т.:Ўқтувчи, 1979. 42-б.
3. Халилова З.Е. Ўзбекистонда ислом дини та лимининг холати. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дис... афтореф. – Тошкент, 2019.
4. Ахмаджонов Ў. Ислом динида авлиёларга ва уларнинг мозорларига сигиниш. – Т.: Қизил Ўзбекистон, 1959.
5. Худойбердиев И. Ислом, шахс ва миллий психология. –Тошкент.: Ўзбекистон, 1993. 72-б.
6. Саксонов Т. Муқаддас жойлар – хурофот ва бид'ат ўчоги. – Т.: Медитсина, 1986. 57-б.
7. Алимова Д.А. Ўзбекистон совет мустабид тузуми даврида: сиёсий ва мафкуравий таъйиқ оқибатлари (1917-1990 йй.). –Тошкент.: Ўзбекистон, 2000.
8. Исломов З. Диний ва дунёвий илмлар уйғунлиги. – Тошкент.: Фан, 2008. 134-б.
- 9.Оқмуродов Т. Ўқувчиларда илмий атеистик дунёқарашни шакллантириш. – Тошкент: Ўқтувчи, 1990.
10. Rahmonov A. Xorazmda "muqaddas" joylar va ularning vujudga kelish sirlari. – Toshkent.: Fan, 1963. 8-19 betlar.
- 11.Оқмуродов Т. Ўқувчиларда илмий атеистик дунёқарашни шакллантириш. – Т: Ўқтувчи, 1990. 23-25 betlar.
12. Ёқубов Б. Халқ байамлари ва урф одатлар. – Т.: Шарқ, 1965. 74-б.
13. Шарипов Е. Муқаддас жойлар хақида хақиқат. – Т.: Ўзбекистон, 1976. 104-bet.